



## O'QUVCHILARDA REFLEKSIV KO'NIKMALARNI MOTIVLASHTIRISH VA INNOVATSION YO'LLAR BILAN OSHIRISH

**Vapayeva Fazilat Shuhratovna**

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Motivlashtirish o'quvchilarni o'z ustida muntazam ishlashi, tarixni o'rganish, tahlil qilish va ob'ektiv baholash asosida xulosalar shakllantirish, ya'ni refleksiv faoliyat ko'rsatish yo'nalishida o'z bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil oshirib borishga undash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, faolligini oshirish va ularda refleksiv faoliyat uchun qiziqishlar uyg'otishga yo'naltirilgan tadbirlarni etarli darajada tashkil etish uchun zarur.

**Kalit so'zlar** motivlashtirish, motiv, refleksiv ko'nikmalar, innovatsiya, tashkiliy-ijrochilik funksiyasi.

**Annotation:** Motivating students to regularly work on themselves, form conclusions based on history study, analysis and objective evaluation, i.e. independently improve their knowledge, skills and abilities in the direction of reflexive activity. It is necessary to encourage them to go, to coordinate their activities, to increase their activity and to adequately organize activities aimed at arousing interest in them for reflexive activity.

**Key words** motivation, motive, reflexive skills, innovation, organizational-executive function.

**Аннотация:** Мотивируя учащихся регулярно работать над собой, формировать выводы на основе изучения истории, анализа и объективной оценки, т. Е. Самостоятельно совершенствовать свои знания, умения и навыки в направлении рефлексивной деятельности, необходимо побуждать их к движению, координировать свою деятельность, повышать их активность и правильно организовывать деятельность, направленную на пробуждение у них интереса к рефлексивной деятельности.

**Ключевые слова** мотивация, мотив, рефлексивные способности, инновации, организационно-исполнительная функция.

Kirish

Motivlashtirish jarayonlarida motivlarning xususiyatlarini hisobga olish zarur bo'lib, tarixiy haqiqat, tarixiy voqea va xodisaning aniqligi, asoslanganlik darajasi hamda sub'ektlarning hayotiy faoliyatidagi amaliy ahamiyati darajasi asosiy motivlar sifatida xizmat qilishini inobatga olish muhim.

Oldindan ko'rish (anglash) va rejalashtirish funksiyasi uchun maqsadli-motivlashtirish boshlang'ich asos bo'lib xizmat qiladi, oldindan ko'rish-rejalashtirish funksiyasi tashkiliy shakllar, usullar, ta'sir etuvchi vositalarni aniqlaydi, nazoratning me'ori va natijalarini baholashga xizmat qiladi, shuningdek, pedagogik tizimni va



uning ishtirokchilarining harakati va faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solishga imkoniyat yaratadilar.

Demak, umumta'lim maktablarida refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari tashkilotchilari va mutaxassislar tomonidan o'quvchilarning boshlang'ich tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalari, qobiliyati, kayfiyati, tarixni o'rganishga moyilligi, imkoniyatlari va intilishlarini aniqlash, ularning ehtiyojlarini o'rganish hamda barcha uchun qulay bo'lgan o'zaro ta'sir jarayonini, innovatsion ta'limiy muhitni vujudga keltirish va takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqishda oldindan ko'rishrejalashtirish funksiyasi amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha, umumiy o'rta ta'lim maktablarida refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda tashkiliy-ijrochilik funksiyasidan foydalanish ham samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

#### METODOLOGIYA

Tashkiliy-ijrochilik funksiyasini samarali amalga oshirish o'zaro ishonch va yordam, har kimga tanlash huquqini berish, faqat maqsadni belgilash emas, balki unga erishish mezonlarini ham belgilash, xodimlarning shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini to'la namoyon etishlari uchun sharoitlar yaratish, bajarilgan ishlar uchun rag'batlantirish va har bir xodimning mehnatini ob'ektiv baholash bilan bog'liq bo'lib, jamoada muhim ijtimoiy muhitning vujudga kelishida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi [1].

Demak, refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari tashkilotchilarini to'g'ri tanlash va ular tomonidan bajariladigan vazifalarni oqilona taqsimlash ham o'ziga xos ahamiyat kasb etib, ularning qiziqishi, moyilligi, dunyoqarashi, tarixga va o'tmishdagi voqea hamda xodisalarning oqibatlariga bo'lgan munosabatlarining tabiiyligi va ob'ektivligi o'quvchilarning refleksiv faoliyati samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi eng asosiy omillar hisoblanadi.

Refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida do'stona hamkorlikka asoslangan o'zaro ta'sir jarayonlari tizimini shakllantirish, mazkur jarayon sub'ektlarining ehtiyojlari, imkoniyatlari, tushunchalari darajasi hamda tarixiy o'tmishga munosabatlari bo'yicha axborotlar to'plash va ularga qayta ishlov berish asosida sub'ektlarning refleksiv faoliyatlari ob'ektivligini ta'minlash ham ta'lim muassasasi rahbarlarining tashkiliy-ijrochilik yo'nalishidagi funksional vazifalari hisoblanadi.

Tashkiliy-ijrochilik yo'nalishidagi funksional vazifalarning bajarilishi samaradorligi refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik tizimning murakkab strukturasi shakllanishi va uning faoliyatining namoyon bo'lishida o'z ifodasini topadi.

#### MUHOKAMA

Demak, ta'lim muassasasida refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi, barcha uchun qulay va muhim bo'lgan ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishda tashkiliy ijrochilik yo'nalishidagi funksional



vazifalar nafaqat ta'lim muassasasi rahbarlariga, balki tashkilotchilar, mutaxassislar, jamoatchilik tashkilotlari va jamoaviy boshqaruv organlariga ham tegishli bo'lib, uni samarali amalga oshirishda demokratik tamoyillar o'ziga xos amaliy ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion strukturaga ega bo'lgan murakkab pedagogik tizim hisoblanayotgan reflektiv ko'nikmalar shakllantirish jarayonlarida o'quvchilarning reflektiv faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish va takomillashtirishda ta'lim-tarbiya jarayoni holatini vaziyatli yondashuv asosida o'rganish muhim bo'lib, o'quvchilar faolligini ta'minlashda ularning faoliyatini kuzatish, nazorat qilish, tahlil qilish va tashxis qo'yish samaradorlikka erishishning eng asosiy omili hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, reflektiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida o'quvchilarning faolligini aniqlash va faollikka ta'sir ko'rsatuvchi omillar asosida vaziyatlarga ko'ra tashxislash ham o'qituvchilar, rahbarlar va tashkilotchilarning eng asosiy funktsional vazifalaridan biri bo'lib, mazkur faoliyat jarayonida nazorat-tashxis funktsiyasi amalga oshiriladi.

#### NATIJA

Nazorat - bu boshqaruv jarayonining faol bosqichlaridan biri bo'lib, u boshqaruvning barcha funktsiyalari bilan bog'liq bo'ladi. Umumiy holda nazorat rejalashtirilgan natija bilan haqiqiy erishilgan natijalarni o'zaro solishtirish jarayoni bo'lib, u faoliyatning muvaffaqiyatini aniqlashga imkoniyat yaratadi [3].

Shunday ekan, nazorat-tashxis nafaqat murakkab pedagogik tizim sub'ektlari reflektiv faoliyatini takomillashtirish va faolligini ta'minlashda, balki vaziyatli yondashuvlar asosida belgilangan ob'ektiv tashxis natijalariga ko'ra pedagogik xodimlar kasbiy kompetentligini rivojlantirish, shuningdek, tashkilotchilar va rahbarlarning mazkur yo'nalishlarda yo'l qo'yayotgan xatolarini o'zi tomonidan aniqlash va ularni o'z vaqtida mustaqil tuzatishda ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, nazorat-tashxis jarayonida to'plangan ma'lumotlar murakkab pedagogik tizim hisoblanayotgan reflektiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari samaradorligini, o'rganilayotgan axborotlarning ahamiyatini va sub'ektlar faolligi hamda reflektiv faoliyati natijalarini baholash ko'rsatkichlari va mezonlarini ishlab chiqish va takomillashtirishda ham muhim hisoblanadi. [4]

#### XULOSA

Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, reflektiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida nazorat-tashxis natijalariga ko'ra o'quvchilarning reflektiv faoliyati natijaviyligini ta'minlashda ularda yangiliklarni o'rganish, faollikka intilish, o'z xatti-harakatlarini o'zi tomonidan muvofiqlashtirish, o'zini-o'zi rivojlantirish va o'z imkoniyatlarini va qobiliyatlarini erkin namoyon etishi uchun zaruriy ehtiyojlarni shakllantirish hamda ma'lum bir izchilikda rivojlantirib borishga tartibga solish-muvofiqlashtirish funktsiyasi xizmat qiladi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :**

1. Makarov A.K. Menedjer za rabotoy. – M.: Molodaya gvardiya, 1989. – 239 s.
2. Mahmudov M.H. Ta'limni didaktik loyihalashning nazariy asoslari. Ped. Fan. Doktorlik. Diss. ... –Toshkent, 2003. 342 b.
3. Meskon M.X., Albert M., Xedouri F. Основы менеджмента / Пер. S angl. – M.: Delo LTD, 1995. – 704 s.
4. Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 159 b.